


## Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari

(2019-yil yanvar-dekabr)

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **3 202,8** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **123,8** %ni tashkil etdi.




Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **349, 0** mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **2,2** % ga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan **1,9** % punktga kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **67,3** %i to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,9** % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **125,6** %ni tashkil etgan holda **2155,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.


Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,0 %** punktga kamayib, **21,8 %**ni tashkil etdi va **697,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **130,9 %**ni tashkil etgani kuzatildi.

### Tashkilot turlari bo'yicha qurilish ishlari




O'sish sur'ati % da

Jamiga nisbatan % da






Davlat va nodavlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **166,0** mlrd. so'm yoki 2018-yilning yanvar-dekabriga nisbatan **194,4** % qurilish ishlari bajarildi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **3 036,8** mlrd. so'm ishlar bajarilib, o'sish sur'ati **121,5** %ni tashkil etdi. Ularning respublikadagi ulushlari mos ravishda **5,2** % va **94,8** %ni tashkil etdi.


## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruktsiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi.




Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 71,5 %i yoki 2291,0 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarini yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 154,0 mlrd. so'm ishlar bajarildi, yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 44,1 % tashkil etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 1479,3 mlrd. so'm, yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 68,6 % tashkil etdi.



Norasmiy sektor hissasiga 657,6 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 94,2 % tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari

2019 yil yanvar-dekabr

67,9 %

Bino va inshootlar qurish  
bo'yicha qurilish ishlari2174,1  
mlrd.so`m

13,1 %

Fuqorolik obyektlarini qurish  
bo'yicha qurilish ishlari418,4  
mlrd.so`m

19,0 %


Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlar610,3  
mlrd.so`m

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun moljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.


Binolar va inshootlar qurilish bo'yicha qurilish  
ishlari

(jamiga nisbatan % da)

2018 yil yanvar-dekabr



2019 yil yanvar-dekabr

Yirik qurilish  
pudrat tashkilotlariKichik korxonalar va  
mikrofirmalar

Norasmiy sektor

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **2,7 %**ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,2 %** punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **2,8 %** punktga ko'payib, **65,2 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ushbu faoliyatdagi ulushi **32,1 %** ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **4,0 %** ga kamayish kuzatiladi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish  
ishlari

(jamiga nisbatan % da)

2018 yil yanvar-dekabr



2019 yil yanvar-dekabr

Yirik qurilish  
pudrat tashkilotlariKichik korxonalar va  
mikrofirmalar


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **31,6 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **0,5 %** punktga ko'paydi. Ushbu faoliyat turidan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi **68,4 %** ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **0,5 %** punktga kamayish kuzatiladi.




## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)

2018 yil yanvar-dekabr



2019 yil yanvar-dekabr

Yirik qurilish  
pudrat tashkilotlariKichik korxonalar va  
mikrofirmalar

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 7,0 % punktga kamaydi va **25,7 %**ni tashkil etdi. Qolgan **74,3 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **7,0 %** punktga ko'paydi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

(2019-yil yanvar-dekabr )

(mlrd. so'm)


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:		
		Binolar va inshootlar qurilishi	Fuqarolik qurilish obyektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>3202,8</b>	<b>2174,1</b>	<b>418,4</b>	<b>610,3</b>
<b>Nukus shahri tumanlar:</b>	<b>1131,9</b>	<b>892,6</b>	<b>63,8</b>	<b>175,5</b>
<b>Amudaryo</b>	<b>257,4</b>	<b>167,2</b>	<b>16</b>	<b>74,2</b>
<b>Beruniy</b>	<b>191,2</b>	<b>164</b>	<b>9,7</b>	<b>17,5</b>
<b>Qorao`zak</b>	<b>66,2</b>	<b>42,8</b>	<b>4</b>	<b>19,4</b>
<b>Kegayli</b>	<b>58,9</b>	<b>29,0</b>	<b>27,2</b>	<b>2,7</b>
<b>Qo'ng'iro't</b>	<b>351,7</b>	<b>102,4</b>	<b>63,3</b>	<b>186</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>52,9</b>	<b>28,5</b>	<b>13,8</b>	<b>10,6</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>47,0</b>	<b>36,6</b>	<b>9,8</b>	<b>0,6</b>
<b>Nukus tumani</b>	<b>135,1</b>	<b>115,3</b>	<b>5</b>	<b>14,8</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>138,4</b>	<b>35,4</b>	<b>95,1</b>	<b>7,9</b>
<b>Taxtako'pir</b>	<b>108,4</b>	<b>53,4</b>	<b>41,3</b>	<b>13,7</b>
<b>To'rtkul</b>	<b>226,6</b>	<b>163,1</b>	<b>12</b>	<b>51,5</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>184,3</b>	<b>163,1</b>	<b>12,4</b>	<b>8,8</b>
<b>Chimboy</b>	<b>58,7</b>	<b>35,6</b>	<b>19,8</b>	<b>3,3</b>
<b>Shumanoy</b>	<b>48,9</b>	<b>23,7</b>	<b>7,6</b>	<b>17,6</b>
<b>Ellikqal`a</b>	<b>145,2</b>	<b>121,4</b>	<b>17,6</b>	<b>6,2</b>

### Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(2019-yil yanvar-dekabr )

(mlrd. so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	O'sish sur'ati, foizda	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>3202,8</b>	<b>123,8</b>	<b>2291,0</b>
<b>Nukus shahri</b>	<b>1131,9</b>	<b>124,7</b>	<b>843,4</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Amudaryo</b>	<b>257,4</b>	<b>104,7</b>	<b>189,7</b>
<b>Beruniy</b>	<b>191,2</b>	<b>132,2</b>	<b>161,0</b>
<b>Qorao`zak</b>	<b>66,2</b>	<b>112,3</b>	<b>51,1</b>
<b>Kegayli</b>	<b>58,9</b>	<b>111,2</b>	<b>36,2</b>
<b>Qo'ng'iro't</b>	<b>351,7</b>	<b>104,8</b>	<b>107,5</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>52,9</b>	<b>108,6</b>	<b>28,4</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>47,0</b>	<b>158,6</b>	<b>28,8</b>
<b>Nukus tumani</b>	<b>135,1</b>	<b>124,0</b>	<b>102,6</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>138,4</b>	<b>148,8</b>	<b>110,0</b>
<b>Taxtakopir</b>	<b>108,4</b>	<b>129,3</b>	<b>77,8</b>
<b>To'rtkul</b>	<b>226,6</b>	<b>137,2</b>	<b>178,6</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>184,3</b>	<b>176,2</b>	<b>168,1</b>
<b>Chimboy</b>	<b>58,7</b>	<b>129,5</b>	<b>44,8</b>
<b>Shumanoy</b>	<b>48,9</b>	<b>122,7</b>	<b>33,3</b>
<b>Ellikqal`a</b>	<b>145,2</b>	<b>115,2</b>	<b>129,7</b>



### Tumanlar kesimida eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan qurilish ishlari

#### Mo'ynoq tumani (158,6 %):

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-yanvardagi 37-sonli qaroriga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari;

#### Xo'jayli tumani (176,2 %):

-Xo'jayli tumanida eng yuqori o'sish sur'ati kuzatiladi, bu kanallar qazish va rekonstruktsiya qilish, ta'mirlash va tiklash ishlari, shuningdek kichik korxonalar tomonidan bajarilayotgan qurilish ishlari hisobiga amalga

oshirilgan keng ko'lamli qurilish ishlari hisoblanadi.

**Nukus shahri (124,7 %):**

-Nukus shahridagi yuqori o'sish sur'ati Prezident maktabi qurilishi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika Instituti qurilishi, Nukus shahri markazlarida yangidan ko'p qavatli turar joylar qurilishi bilan bog'liq.

Bundan tashqari, respublika bo'ylab hamma tumanlarda qurilish , yangi qurilish, rekonstruksiya ishlari davom etmoqda, bularga:

- Xo'jayli va Qo'ng'iro't tumanlarida kollektorlarni qazish , "Hayranli" va "Hatep" kanallarini rekonstruksiya qilish;

- Ellikqal'a tumanida "KT-1", "K-5", "Akchakul", "KT-3", "K-4", "K-11", "Guliston", "K-1 Sho`rtanbay" kollektorlari, shuningdek, Nukus tumanida "Kerdar" kanalini ta'mirlash-tiklash ishlari bo'yicha katta hajmdagi qurilish ishlari bajarildi;

- "Amudaryo o'zanida kichik suv havzalarini barpo qilish, faza-2" loyihasini amalga oshirish;

- Ustyurt tumanida neft va gaz quduqlarini qidiruv hamda burg'ulash ishlari va boshqalar hisobiga yuqori o'sish sur'atlari kuzatiladi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi stasistika  
boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (71) 230-82-13**

**(71) 230-82-14**

**(61) 222-75-91**